

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KINOS PALATASI
INV. N. _____

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

TONG

YULDUZI

2009-yil
10-avgust
N: 32
(66729)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092




Tursunboy ADASHBOYEV

QIYOSI YO'Q

Sen tug' ilgan,
Qutlug' xona.
Aziz diyor,
Pok ostona.
So'lim o' lka,
Kesh, Farg' ona,
Qadim Urganch,
Shu durdona
Ko' rkam Toshkent,
Asal - qandim
O' sh, Buxoro,
Samarqandim.
Qiyosi yo' q,
Bu yagona.
Sen-u menga,
Vatan - Ona.
Shunday go' zal,
Ulug' yurtkim.
Tuproq' ini,
Ko' zga surtgim.

**Temurbek
maktabga boradi**



NEGA OLOY BOZORI DEYMIZ?

Bu savolga javobni A. Muhammadkarimovning «Toshkent bo'ylab toponomik sayohat» kitobidan topdik. Unda bayon etilishicha, bozor «Oloy malikasi» deya tanilgan Qurbonjon dodhoh nomi bilan bog'liq ekan. Ayrim qadimshunoslarning fikricha, XIX asrning 80-yillari o'rtasida Oloy hokimi Qurbonjon dodhoh mustaqillikka erishish uchun «Po'lat-

xon» qo'zg'olonchilari saflarida dushmanlarga qarshi kurash olib borgan. 1876-yilda Skobelev qo'shiniga qarshi zarba bergan, ammo xoinlik natijasida mag'lubiyatga uchrab, ortga chekingan. Odamlarining ayrimlari asir tushgan, boshqalari turli tomonlarga qochishga majbur bo'lishgan. Ulardan bir qismi Oloy bozori hududidan pano'p topishgan ekan. Mabodo, boshqa dalil-isbotlar bo'lsa, bizga yozib yuboring.



ARIQLARNI TOZA SAQLANG

Yozning issiq kunlarida bolalar ariqlarda cho'milishadi, istirohat bog'lariga borishadi, oromgohlarda dam olishadi. Shunday kezlarda muzdekkina muzqaymoq yeb, salqin ichimliklar ichishning rohatiga ne yetsin?! Ammo ayrim tengdoshlarimiz ularning chiqindilarini duch kelgan yerga yoki ariqlarga tashlab ketaverishadi. Mavj urib oqayotgan suvni iflos qilishga qanday qo'llari borarkin-a?! Axir shu iflos suvlar meva va sabzavotlar o'sadigan bog'larga, polizlarga oqib boradi-ku. Keyin ekinlarga zarar yetkazadi. Va biz shu sabzavot va mevalarni iste'mol qilamiz. Biz suvga qanday munosabatda bo'lsak, u ham bizga shunday javob qaytaradi.

Dilnavoz ABDUVAHOBOVA,
yosh muxbirimiz

Temurbek maktabga boradi

Bolakayga yaxshi niyatda Temurbek deb ism qo'yishganda, uning otasi Qahramon akani yaqindan bilgan olimlar, jurnalistlar bundan juda xursand bo'lishgan edi. Shu voqega ham olti yil bo'libdi.

Kuni kecha u bilan uchrashib, suhbatlashdik.

– Hali ham bog'chaga qatnayapsizmi?

– Yo'q, maktabga chiqishga tayyorgarlik ko'ryapman!

Bu yangilik bizni xursand etdi: demak muxlislarimiz soni yana bittaga ko'payadi.

Biz uni suratga tushirishga oshiqqanimizda:

– Ust-boshimni almashtirib olay! – dedi u va oyisining qo'lidagi yelim xaltadan yangi kostyum-shimni olib kiydi.

– Juda yarashdi! – deya maqtadik.

– Maktabga kiyib borish uchun oldirdim! – deya izoh berdi o'zi.

Rejali bola ana shunaqa bo'ladi. To'g'ri, bugun biz sizga tanishtirayotgan bolakay Temurbek hali biror ko'rik-tanlovda yoki katta musobaqalarda qatnashib, g'olib yo sovrindor ham bo'lganicha yo'q, ammo shu birgina suhbatdan bildikki, ismiga munosib farzand bo'lish niyati bor. Bolakay bilan qizg'in suhbat qurayotganimizda, yonimizdan o'tib ketayotgan onaxonlardan biri:

– Istiqlo'bolalariga havas qilamiz, ular uchun juda keng imkoniyatlar yaratilmoqda! – dedi.

Nasib etsa, yana o'n yildan so'ng Temurbek bilan suhbatlashishni ko'nglimizga tugib, ortga qaytdik. Ana o'shanda suhbatdoshimizning yutuqlaridan chinakamiga xursand bo'lishingizni istab qolamiz.

OVOZ CHIQARIB O'QIYMIZ

Men va do'stlarim Maftuna Xojibekova, Gulzoda Abdusattorova, Sunnat Sagdiyev Toshkentdagi 197-maktabning 5-sinfini a'lo baholarga bitirib, 6-sinfga o'tdik.

1-Ko'rkam ko'chasi maktabimizning yonida joylashgan. Mahallamiz bolalari ta'tilni maroqli o'tkazish maqsadida «Tirishqoq» va «Bilimdon» degan guruhlar tuzib, yangi kuy, qo'shiq, she'rlar o'rganib, o'zaro musobaqalashdik.

«Bekorchidan hamma bezor, – deyilar mahallamiz faollaridan Farida Rajabboyeva, – ma'rifiy-madaniy ishlar insonni yuksaltiradi, ma'naviyatini boyitadi».

Guruhimiz bilan mahallamiz bolalariga konsert ko'rsatdik. «Ona – Vatan», «Diyor», «Oq terak», «Malina teramiz», «Uchala qiz» nomli qo'shiq va raqslarimiz nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham manzur bo'ldi.

Sharof ko'chasi, 3- va 4-Ko'rkam ko'chalarida ham konsert namoyish qildik.

Ta'tilda yana ko'chma kutubxona tashkil etganmiz. Tohir Malikning «Alvido, Bolalik» asarini o'qib chiqdik. Shu kunlarda Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asarini o'qishni boshladik.

Charosoy SAGDIYEVA,
Maftuna XOJIBEKOVA
yosh muxbirlar



Irmoq

TO'G'RI YO'L

(Ertak)

Qadimda bir qo'li yengil tabib yashab o'tgan bo'lib, uning o'g'li ham tabib bo'lishni orzu qilib yurarkan. U o'z ishining ustasi bo'lgani uchun ham jamiyki bemorlar unga murojaat qilisharkan. Kunlarning birida bir badavlat kishi tabibga oshqozoni og'riyotganidan shikoyat qilibdi. Dono tabib giyohlardan damlamalar tayyorlab, uni



Nazokat XASANOVA
chizgan rasmi

davolabdi. Shu orada tabib uzoq safarga chiqadigan bo'lib qolibdi. O'g'liga bemorlariga yaxshi qarab turishni buyuribdi. O'g'il otasidan ham zukkoroq ekanki, kelgan bemorlarni yaxshi davolab, duolarini olibdi. Shu orada boyni yana oshqozoni og'rib, tabib huzuriga borsa, uning o'rnida o'g'li o'tirganmish. Boy dardini unga so'zlabdi. Tabib uni giyohlar bilan davolab, endi oshqozonidan shikoyat qilmasligini aytib, uyiga jo'natibdi. Boy ota unga o'z minnatdorchiligini bildiribdi.

Tabib safardan qaytgach, o'g'li unga shunday debdi: Boy bemoringizning kasali juda yengil ekan. Uni davolab, endi sira oshqozonidan shikoyat qilmasligini aytib yubordim.

– Eh, bolam-a, boplabsan. Axir sen har safar mo'maygina haq berib turadigan bemorni butunlay tuzatib yuboribsan-ku?! Men uning ko'proq pulini olish uchun ataylab sekinlik bilan davolab yurgan edim, – debdi ota afsuslanib.

Otasining bu gaplaridan o'g'lining dili ranjibdi.

Nafosat TOJIBOYEVA,
Termiz shahri

MAVLUDANING XATOSI

(Qatra)

Sinfoshlarim Mavluda va Jamila ajralmas chin dugona, a'lochi qizlar. Kunlardan bir kuni shunday voqea yuz berdi:

Tasviriy san'at darsi edi. Ustozimiz hammadan uyga berilgan vazifani so'rab, baholayotganda, Mavluda rasm daftarining uyda qolganini aytdi. Ustoz uni doska yoniga chaqirib, «Shu yerda turib tur!» dedilar.

Keyin Jamila chizgan rasmini baholatishga olib bordi. Ustozimiz uning rasmini maqtadi, chunki Jamila juda chiroyli rasm chizgan edi. Shu payt Mavludaning alami

Istiqlolimizning o'n sakkiz yillik tantanalariga ham sanoqli kunlar qoldi. Biz poytaxtimizning diqqatga sazovor joylarida sayr qilib yurgan bolalar va o'smirlar bilan suhbatda bo'ldik:

NOZIM, 8 yosh, Namangan viloyatidan. Toshkentga birinchi marta kelishi ekan.

– Poytaxt sizga yoqdimi?
– Menga Mustaqillik maydoni juda yoqdi. Katta favvora ostidan o'tdim. Mazza. Kiyimlarim ho'li bo'ldi. Yerlari ko'm-ko'k gilamga o'xshaydi, juda chiroyli ekan.

– Yana nimalar yoqdi sizga?
– Ko'chalari, binolari! Ko'zimni qamashtirdi.

Poytaxtimiz mehmonlari

KITOBNI MARDLAR O'QIYDI



AZAMAT, 16 yosh, Qashqadaryodan. U har yili Toshkentga kelib, sayr qilib ketar ekan.

– Akam universitetda o'qiydilar. Har yili meni olib kelib, tomosha qildiradilar. Avvalgi shahar bilan bugungi Toshkent orasida yer bilan osmoncha farq bor. Poytaxtimizning go'zal qiyofasi meni juda maftun etdi.


– Bu yerdan uyga nima olib ketasiz?
– Kitoblar olib ketaman. Shaharning kitob do'konlari turli adabiyotlarga boy.
– Kitob o'qishdan zerikmaysizmi?
– Kitobni mardlar o'qiydi, opa! Dangasa odam kitobni qo'liga olsa, uyquasi keladi.

SADOQAT, 15 yosh, Andijon shahridan.

Sadoqatxon gazetamizga chinakam muxlis ekan.

U bizga quyidagilarni gapirib berdi:

– Men bu yil «Tong yulduzi» gazetasini miriqib o'qidim. Gazetaning birinchi betidan tortib, so'nggi sahifasigacha menga yoqadi. Ichki sahifalarda o'qiydigan narsalar ko'p. Yosh muxbirlarning xabarlarini, she'r, hikoyalar, «Quvnoq tanaffus», sportga oid maqolalar menda yaxshi taassurot qoldirdi. Bu yil o'qigan maqolalarim orasida «Chingizxonni cho'chitgan minora» maqolasi umrbod yodimda qolsa kerak, deb o'ylayman. Buxorodagi Arslon minorasi bilan Italiyadagi «Og'ma



Toshkent-2200 yoshda

minora»ning deyarli tengdosh va egizak ekanligini bilib, lol qoldim. Bundan ming yil muqaddam qurilgan Arslon minorasining juda katta bilim asosida bunyod etilganligidan ham juda ta'sirlandim. Ajdodlarimiz nihoyatda bilimdon bo'lgan ekanlar. Men ham ilmli inson bo'lib, xalqqa xizmat qilishni dilimga tugdim.

SHAHNOZA
tayyorladi



BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Men ham «Tong yulduzi»ning muxlislaridanman, desam ishonavering. Chunki uni o'quvchilik yillarimdan o'qib kelaman. Fursatdan foydalanib, sevimli nashrimizni 80 yilligi bilan muborakbod etaman.

Gazeta sahifalarida o'quvchilarning bilimi, ma'naviy dunyosini yanada boyitishga xizmat qiladigan mavzular, sahifalar talaygina. Uni yanada ta'sirli, qiziqarliroq qilish uchun esa barchamiz birgalikda harakat qilishimiz lozim.

Bizga ma'lumki, sentabr oyida ulug' bobomiz Abu Rayhon Beruniy tavallud topgan kunni nishonlaymiz. Bobomizning ilmiy merosini qanchalik bilishingizni sinash maqsadida viktorina savollarini yo'llayapman.

G'oliblarni sirli sovg'alar kutadi.

Asliddin BOLIQULOV,

Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-maktabning tarix va geografiya fani o'qituvchisi

TAHRIRIYATDAN:

Bilimdon-u, zukko bolajonlar, sirdaryolik ustoz Asliddin Boliqulovning bu taklifi zerikib o'tirganingizda ayni muddao bo'lgandir-a?! Sizga bir oy muhlat, javoblaringizni tezroq tahririyatga yo'llang va sirli sovg'alarni qo'lga kiriting.

VIKTORINA SAVOLLARI

1. «Beruniy» so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. «Al-qonun al-Ma'sudiy» asari qaysi sohaga oid?
3. Beruniyning «Kitob al-jamohir fi-ma'rifat al-javohir» asari yana qanday nom bilan mashhur?
4. Akademik V.Rozen Beruniyning qaysi asarini «Sharq va g'arbning qadimgi va o'rta asr kitoblari orasida tengi yo'q asar» deb baholagan?
5. Beruniy nechta yulduzning joylashuvi va yulduz kattaliklari qayd etilgan yulduzlar jadvalini tuzgan?
6. Beruniy yer meridiani yoyining bir darajasi necha metr ga teng deb topadi?
7. Abu Rayhon Beruniyning birinchi ustoz kim?
8. Yurtimizdagi qaysi shaharlarda Beruniyga haykal o'rnatilgan?

keldimi: «Bu chiroyli rasmni Jamilaga mening opam chizib bergandi», – dedi. Uning nega bunday qilayotganini hamma tushundi. Ustozimiz: «Birovning yutug'ini ko'rolmaslik yaxshi odat emas, do'stlarni sotish esa undan ham yomonroq», deya nasihat qildilar. Mavluda o'z xatosini anglab, qizarib, sinfdan chiqib ketmoqchi bo'lganida, Jamila uning qo'lidan ushlab: «Mavluda, sen bu gapni beixtiyor aytib yubording. Men seni kechirdim», dedi. Hammamiz qarsak chalib yubordik.

Faxriniso MAHKAMOVA,
Jizzax tumanidagi 18-maktab o'quvchisi

YO'LBARS VA QUSHCHA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda bir yo'lbars bo'lgan ekan, u o'rmonda jarohatlangan qushchani ko'rib qolibdi. Och yo'lbarsning og'zidan so'lagi oqib, uni judayam yegisi



kelibdi. Chalajon piri uchayotgan qushchani yo'lbars tutmoqchi bo'libdi. Biroq qushcha tilga kirib, yo'lbarsga yalina

boshlabdi:

«Ey yo'lbars, sen menga tegma, meni yema, iltimos».

Yo'lbarsni rahmi kelibdi: «Mayli yemayman, lekin ochman, menga o'lja kerak, o'lja topib berasanmi? Agar topa olsang, seni yemayman», deb shart qo'yibdi. Qushcha o'lja topib berishga ko'nibdi. «Ketimdan yurgin», – debdi. Ular birgalashib baland tog' tepaligidagi g'orga kirishibdi. Qarasa, g'or ichida ayiq uxlab yotgan ekan. Uni ko'rgan yo'lbars xavotirga tushib cho'chibdi, qo'rqqanidan orqasiga qaramay qochibdi. Qushchaga:



«Menga yemish topganing shumi, juda ham bahaybat ekan, menga o'zingga o'xshash mitti jonivorlar topib ber», debdi.

Qushcha qo'rqqanidan kasal quyovni topib beribdi. Yo'lbars uni paqqos tushiribdi. Yegach oshqozoniga turli mikroblar kiribdi. Va u kasal bo'lib qolibdi.

«Eh qayerdan ham shu quyovchani yedim-a?» deb afsus chekibdi. «Endi har doim nafsimni tiyganim bo'lsin», deya o'ziga o'zi so'z beribdi.

Shunday qilib, yo'lbars inqillab o'z yo'lga ketibdi, qushcha esa murod-maqsadiga yetibdi.

Munira BAHODIR qizi



KECHIRI

**ZAVQINGIZGA
ZAVQ QO'SHILSIN!**

Ijod olamini sayr etish har bir qalbni o'ziga rom etgay. Cheksiz his-tuyg'ular dunyosi kimlarni she'r yozishga undamagan, deysiz. Yurtning bepoyon quchog'ida kezib, borliqning betakror go'zalligiga mahliyo bo'lsangiz, she'r yozmaslikning chorasi yo'q. Qo'lga qog'oz - qalam olib ko'rganlarini chizishga ahd qilgan yoshlarimiz talaygina. Tahririyatimizga kelayotgan behisob maktublar bunga guvoh. She'r yozilyapti, har kim dilidagi his-hayajonini qog'ozga to'kishga oshiqadi. yozilgan satrlarning qay biri yurakni nechoqlik ilitishini odil hakam- vaqt ko'rsatadi.
Biz Istiqlol kuychilariga zavqingizga zavq qo'shilsin, deymiz.

SINGLIMGA

Bir singlim bor Durdona
U dunyoda yagona.
U kulsa, quyosh kular
Olam shodlikka to'lar.

Quvonchlarini bir jahon
Iqtidorli va chaqqon.
Oyimizga yordamchi
Hozircha u o'quvchi.

Orzulari ham katta
Rassom bo'lar albatta.
Niyatingga yetishgin,
Qush kabi ko'kka uchgin.

Dilnoza MARDONOVA,
Buxoro viloyati, Vobkent
tumani, Vog'onziyak qishlog'i

VATAN

Vatan, o'zing onasan,
Biz uchun yagonasan.
Bag'ringda ungan gulmiz,
Xizmatingga shaydirmiz.

Tuproq'ing aziz, ulug'
Tarixing tengsiz qullug'.
O'xshashi yo'q yagona—
Vatan, o'zingsan ona.

ANHOR

Uyimizning etagidan U yoz bo'yi ekinlarning
Oqib o'tar bir anhor. Chanqog'ini qondirar,
Bo'ylarini yalpiz bezar, Bolakaylar undan chiqmay,
Kelganida har bahor. Hovurini so'ndirar.

OYBEK BOBOMIZ

So'zlari durli
Oybek bobomiz.
Yuzlari nurli,
Oybek bobomiz.

«Bolalik»dan u
Topdi zo'r kamol.
Qalbdan «Tuyg'ular»,
«Mash'ala» misol.

«Navoiy» uning
Yuragin sehri.
«Ulug' yo'l»larda
Tushdi xalq mehri.
Qo'lda qalam-soz
Tuzdi bayotni.
Jo'shib kuyladi
Nurli hayotni.

So'zlari durli
Oybek bobomiz.
Yuzlari nurli
Oybek bobomiz.

Farog'at ZIYATOVA,
Farg'ona viloyati,
Buyayda tumani



Visolaxon
TOSHO'LATOVA,
Toshkentdagi
20-o'riya maktab
o'quvchisi

Yong'irdan sochlarim ividi,
Ko'ngil ham jiqqa ho'l, jiqqa ho'l,
Ortimdan chorlagan kim edi,
Qay tomon eltadi sirli yo'l?...

Men kimdan qochaman anglamay
Men qayga shoshaman yumib ko'z.
Chorlagan ovozni anglamay,
Eshitmay boryapman bitta so'z.

So'ng bilsam, inlagan she'r ekan,
Bu tosh yo'l eltarkan sukutga.
Yong'ir ham g'amimni yer ekan
Men esa borliqni unutgan!

She'rlarim, she'rlarim kechiring...

Dilnavoz SAIDOVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Abdulla Qahhor
nomli maktab o'quvchisi

QISHLOG'IM

Qishlog'im naqadar go'zalsan bu kun,
Madhingni kuylamoq menga erur sha'n.
Seni ta'riflashga qalamim ojiz,
Yo'lingda fidodir shu jism, shu tan.

Zilol suvlaringdan qonmas vujudim,
Ko'nglim tusayverar maysalar isin -
Cheksiz qirlaringda yelib yugurdim,
Gullarga mahliyo bo'lganim uchun,

Yashnagin qishlog'im, mudom bo'ston bo'l,
Baxshilar tilida yangrar doston bo'l,
Umrbod men seni sevib yashayman,
Gullarga burkanib, hur guliston bo'!

Maftuna ABDOQODIROVA,
Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi
52-maktabning 8-sinf o'quvchisi

**2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI
VA FAROVONLIGI YILI**



**KICHIK VA
KATTA TAGOV**




Katta tagov qishlog'imiz Qatron tog' etagida joylashgan. Uning paydo bo'lish tarixi haqida ota-bobolarimiz shunday hikoya qilishadi: «Aka-ukalar dehqonchilik qilish uchun unumdor yer axtarib yo'lga tushadilar. Hozirgi bizning qishlog'imiz o'rniga katta aka, yuqori qismiga esa uka oilasi bilan joylashib, dehqonchilik qila boshlashadi. Serhosil bu yerlarga keyinchalik boshqa oilalar ham ko'chib kelib, qishloq tashkil bo'ladi. Aka yashagan joy Katta tagov, ukaning yerlari esa Kichik tagov deb yuritilgan.

Qishlog'imiz yeri haqiqatdan ham unumdor va serhosil, unda gilos, o'rik, shaftoli, olma, anor, anjir, xurmo, behi, bodom, yong'oq kabi meva va sabzavotlarning turli xillarini uchratasiz. Katta maydonlarda esa paxta va bug'doy yetishtiriladi.

Tagovliklar samimiy, saxiy, bir-biriga oqibatli insonlar. Mashhur bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning bolaligi va yoshligi ham shu qishloqda o'tgan. Aytishlaricha, «Besh bolali yigitcha» asarining qahramonlari hamqishloqlarimiz ekan. Ayni ta'til kunlarida sevimli yozuvchimizning yangi asarlarini miriqib o'qiyapman. Men ana shunday hamqishloqlarim borligidan faxrlanaman. Ularga munosib farzand bo'lishga harakat qilaman.

Nargizaxon ASOMIDDINOVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
37-maktabning 5-sinf o'quvchisi



**TABIATIN GO'ZALLIGI
QUVDANDIR**


«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga


Muqaddas yerimizning yanada gullab-yashnashi avvalo suvdandir. Bugungi kunimiz, kelajagimiz, tabiatning go'zalligi-yu softligi suvga bog'liq. Biroq, hozirgi kunda ayrim kichik daryo va soy qirg'oqlaridagi chiqindilarga ko'zingiz tushadi. Ba'zan suvning jo'mragini ochiq holda goldiramiz. Qadimda ota-bobolarimiz suvni e'zozlashgan, unga qarab hallo tuflash, ariqlarga qarata supurish katta gunoh hisoblangan.

Ma'lumki, kichik daryo suvlaridan tejamkorlik bilan to'g'ri foydalanish xo'jaliklarga katta foyda keltiradi. Buni biz qishloq bolalari juda yaxshi bilamiz, bilamiz-u gohida bee'tibor bo'lamiz.

Suvdan-da azizroq ne'mal yo'qligini hamisha yodda tutaylik, uning softligini saqlaylik, tejamkortikni o'rganaylik. Bu esa hayotni himoya qilish, sog'liqni, farovonlikni, tabiatning go'zalligini himoya qilish demakdir.

San'at DUSHAMOV,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi 4-maktab
o'quvchisi





Qo'shaloq bayramlar arafasida turgan yurtimiz uzra bayram shukuhi kezib yuribdi. Uning qay bir go'shasiga bormang, eng ulug' va eng aziz bayramimiz taraddudiga guvoh bo'lasiz. Poytaxtimiz esa o'zining 2200 yillik to'yiga orolanyapti. Bayram kayfiyatidagi yurtdoshlarimiz, ayniqsa, mustaqillikka tengdosh yoshlarimiz qalblarida hayajon, faxr va iftixor tuyg'ulari jo'sh uryapti. Istiqlol bergan imkoniyatlardan mamnun bo'lib, komillik sari intilayotgan yoshlarimizning so'zlariga quloq tutaylik-chi:



Kamola SHARAFIDDINOVA,
«Internatsional House
Tashkent»
akademik litseyi 3-bosqich talabasi:

BOBOMGA SO'Z BERGANMAN

Men taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning nabirasiman. Esimni tanibmanki, uyqudan turgan zahotimoq, apiltapil yuvinib, buvamning xonalariga o'shiqardim. To'g'riso'zlik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishni buvajonim yillar davomida ongimga singdirib borardilar.

Buvam og'ir xastalikka chalinib, yurolmay qolganlarida men endigina 6 yoshga to'lgandim. O'shanda ularga kitoblarni taxlash, gazeta va jurnallar olib kelish, telefon orqali javob berish kabi yumushlarda yordamlasha boshladim. «Sen mening shaxsiy kotibam bo'lasan» derdilar mehr bilan boshimni silab.

«Bugungi kun odamlari butunlay boshqacha. Tezkor, shiddatli zamonda olamni tushunish, idrok etish va unga munosabat ham o'zgarib bormoqda. Lekin kitobga bo'lgan munosabat har qanday zamonlarda ham o'zgarmasligi, aksincha, ortib borishi zarur», - derdilar buvam doim. Hozir bobojonim oramizda yo'qlar. Ularning xonalaridagi kitoblarni birma-bir qo'limga olib, hali matbuotda chop etib ulgurmagan qo'lyozmalarini mutolaa qilarkanman, ana shu purma'no gaplari bot-bot yodimga tushaveradi.


Buvam ba'zan meni yonlariga chorlab shunday der edilar: «Nihoyasiz bog' oxir borib xazon bo'lgay. Endi umrim oxirlab qoldi. Umidim sizlardan, bolam. Tilimiz javohirlarini ko'proq o'rgan. Men to'plagan bu kitoblarni avaylab-asra, to'ldirib, kelgusi avlodlarga yetkazishga harakat qil. Sen, albatta, mening yo'limdan borasan. Lekin hali yosh navniholsan, ko'p o'qishing, izlanishing kerak».

Ba'zida o'ylanib qolaman. Bobom umrini bag'ishlab yozgan bu kitoblarni avaylab-asrab, javohirlar bilan to'ldirishga kuch-quvvatim yetarmikan?! Lekin bunga harakat qilaman. Chunki men buvamga so'z berganman.

Buning uchun esa hozirdanoq puxta bilim olishim, qalamimni charxlab borishim lozimligini yaxshi bilaman. «Men bobomga so'z berganman» nomli ilk kitobcham chop etilgan kun

uyimizda haqiqiy bayram bo'lgandi. Hozirda «O'z-begim yoshlari» guruhida boshlovchilik qilyapman. O'tgan yili Ispaniyada bo'lib o'tgan festivalda qatnashib, o'zbek san'atini dunyoga ko'z-ko'z qilib keldik, ko'plab do'stlar orttirdik...

Buvajon, - deya hayqirgim keladi gohida, - yozgan bebaho kitoblaringiz orqali xalqimiz orasida abadul-abad yashaysiz!



Shahnoza RAVSHANOVA,
JIDU qoshidagi «Shayxontohur» akademik litseyi o'quvchisi:

SHU YURTNING FARZANDIMAN

yashab keldi. Yurtimizda esa boshlagan Istiqlol shamoli yuraklarga malham bo'ldi. Qurib borayotgan daryolar obi hayotga to'ldi...

Istiqlol bizga bergan eng buyuk ne'mat o'zligimizni anglash va uni qadrlash, deb o'ylayman. Biz yoshlar ana shu o'zligimizni butun dunyoga ko'z-ko'z qilmoqqa astoyidil bel bog'laganmiz. Axir biz Navoiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy, Bobur singari ilmi, qalami bilan butun dunyoni lol qoldirgan buyuk ajdodlarning avlodlarimiz!

Istiqlol istiqbolimizni ham belgilab berdi. Biz yoshlar dunyo andozalariga mos keladigan litsey va kollejlarda tahsil olib, kelajakda adabiyot, san'at, ilm-fan borasida bobolarimizga munosib farzand bo'lish uchun barcha imkoniyatlarga egamiz.

Bizlarni qo'llab-quvvatlash uchun turli tanlovlar, davlat imtiyozlari, hatto, Davlat mukofotlari ham ta'sis etilgan.

Men ham ana shu imkoniyatlardan foydalangan holda o'z iqtidorimni sinovdan o'tkazyapman. 2007-yilda «Eng ulug', eng aziz» tanlovida qatnashib, 2-o'ringa loyiq topildim. Yosh ijodkorlarning «Zomin seminari»da «Eng yaxshi tarjimon» nominatsiyasi g'olibasi, «Dunyo bolalar nigohida» nomli yosh jurlalistlar tanlovining maxsus Diplomi sohibasi boldim. Kelasi yili Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga o'z nomzodimni qo'ymoqchiman. Hech bir davlatda o'smir yoshidagi qizlarga bunchalik katta e'tibor berilmaydi. Bu menga Istiqlolim bergan buyuk istiqbol! Men shu yurt farzandi ekanligimdan faxrlanaman!



Shahlo XOLMATOVA,
TDSHI qoshidagi
Xorijiy tillar
akademik litseyi
o'quvchisi:


Bobojonim meni «Mustaqillik tengdoshi» deya erkalaydilar. Bu ta'rifdan bir quvonsam, bir o'yga tolaman. Nazarimda shu ikki og'iz so'z zimmamga kattagina mas'uliyat yuklayotgandek. Mustaqillik tengdoshi bo'lish

TOSHKENTIMNING OY QIZI

uchun avvalo unga munosib bilimli, salohiyatli yoshlar bo'lishimiz lozim. Buning uchun esa yurtimizda barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Chet ellarda tahsil olaman, o'rganaman degan o'g'il-qizlar uchun dunyo eshiklari keng ochilgan. Iqtidorli yoshlarimizning har jabhada o'z iste'dodlarini sinab ko'rishlari uchun ko'plab mega-tanlovlar, fan olimpiadalari, sport musobaqalari tashkillashtirilyapti.

Men ham yaqinda «Toshkentim oy qiziman» nomli tanlovda qatnashib, ona shahrim haqidagi bilimlarimni sinovdan o'tkazdim, bilmaganlarimni o'rgandim.

Hozirgi ta'til kunlarimda «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga kelib, ustozlarimdan saboq o'lyapman, maqola va xabar yozish sirlarini o'rganyapman. O'rganganlarim kelajakda albatta asqotishiga ishonaman. Chunki kelgusida xalqaro jurnalist bo'lishni, yurtimiz haqida chet tillarda maqolalar yozishni orzu qilaman.



Tutqunlikda yashaydigan jonzoatlarni hech kuzatganmisiz? Qafasdagi qushlar, issiqxonadagi o'simliklar...

Do'stlari dadamga bir juft to'tiqush sovg'a qilishgan. Men ularni juda yaxshi ko'raman, g'amxo'rlik qilaman. Har tong ular qo'nim topgan deraza yoniga juda ko'plab qushlar uchib kelishadi. To'tiqushlarim ularni ko'rib, bezovtalanib, ozodlikka intilishadi...

Inson ham xuddi qushlarga o'xshaydi, o'zgalarga mute bo'lib yashay olmaydi. Bizning xalqimiz ham ko'p yillar mobaynida ana shunday



Qambar Ota

QUYOSH SHARQ BILAN

Uzoqlarga
Ufqqa boq,
Alvonlanib
Yonar shafaq.

Tongni kutib
Ol zavq bilan.
Quyosh mangudir
Sharq bilan.

Bag'ri qaynoq,
Issiq o'lkam,
Odamlaring
Dili ko'rkam.



OSMONIM

Osmonim
Balandim,
Tinig'im.
Kunduzlar
Quyoshlim,
Yorug'im.
Tunlar oy,
Yulduzlim,
Ziyolim,
Cheksizim,
Sendadir
Xayolim.
Ishongan
Yomg'irim,
Qorimsan,
Saxiyim,
Nasibam –
Borimsan.
Ibratlim,
Ezgulik
Tilagim,
Osmonim –
Beg'ubor
Yuragim!


BILIMDIR, BILIM

Ohanrabosi kuchli,
Sodiq, vafosi kuchli,
Baxtning eshigin ochgan,
Mushkulni oson yechgan –
bilimdir, bilim.

Tunlarni yorqin qilgan,
Yiroqni yaqin qilgan.
Ming dardga shifo topgan,
Hayot chirog'in yoqqan –
bilimdir, bilim.

Yoritib umr yo'lim,
Burro so'zlatgan tilim,
Erkka chulg'agan dilim,
Baland aylagan qo'lim –
bilimdir, bilim.

Bilim do'st, bilim oshna,
Bilim ol, kulib yashna,
Bilim eng tiniq chashma,
Sipqorgan sayin tashna –
dilimdir, dilim.



QUSHLAR

Osmon uzra charx urib,
Joni-dili barq urib,
Qushlar, qushlar qushlarey,
Ko'kda ko'ngil xushlarey.

Nur qo'ynida cho'milib,
Bulutlarga ko'milib,
Zavqi toshib yayraydi.
Qanot qoqib o'ynaydi.

Koinotni kezsada,
Yuksaklarda uchsada,
Der, bu baxtga o'tmaydi.
Yer gashtiga yetmaydi!



Qolmas ko'kda ovunib,
Zamin ko'ksin sog'inib,
Yurt ishqida suyunib,
Pastga tushar quyilib.

Uyasiga to'sh qo'yib,
Orom olishar to'yib.
Rizq-nasiba taxt, deydi.
Vatan mehri – baxt, deydi.

QARI XO'ROZ O'KINCHI

Tovuqoyim yonida
O'sgan kun, tun-kechalar.
Qomatlarin tik tutib,
Borishardi jo'jalar.

Muyulishda kelardi
Qari Xo'roz, shashti past.
Zo'rg'a dedi, o'kinib:
«Otalarin tanimas».



(Boshi o'tgan sonda)

Katta-yu kichik kashfiyotim
ro'parasida turvolib kula
boshlashdi. Hamma bu
yangilikning egasini qidirardi.
«Men» devorgim kelardi-yu,
o'zimni bosardim. Axir men bu
ishni maqtanish uchun qilmadim-
ku. Bor-yo'g'i Jannat opaga

MUXABIRLIKNING

OLIS YO'LLARI...

yordam
bo'lsin
dedim.

Bizni deb hadeb qiynalaveradi-
larmi, kekxa hollariga? «Bu
yangilik bo'пти, – dedi direktorimiz
tomoşa qilayotganlarga qarab, endi uni shundoqligicha «Yangi
yo'l»ga jo'natvoramiz, bir to'rtinchi sinfni urib chiqishsin».
«Yangi yo'l» deganlari tuman gazetasi edi. Sinifimizda yig'i-
sig'i, tavba-tazarrular boshlandi. Ammo men qilib qo'ygan
ishimdan pushaymon emas edim. Lekin ish shu darajada
chuvalashib ketadi, deb o'ylamagan edim ham. Damim
ichimdä. Bu ish meniki ekanini Jannat opa sezib qoldilar.
Alang-jalang qilaverib o'zim sezdirib qo'ydimmi yoki xatimdan
sezib qoldilarmi, ishqilib darsdan keyin meni olib qoldilar.

– Nima qilib qo'yding, zumrasha?! – deb ayabgina
qulog'imdän cho'zdilar.

– E, sizga yaxshi bo'sin deb qiluvdim, Jannat opa, meni
kechiring, sizzi juda yaxshi ko'raman, – dedim yaltoqlanib. –
Bolalar «ikki» olmaymiz, darsdan qochmaymiz, deyishdi-ku...
Yana sizga nima keak?

– Yaxshi ko'rish shundoq bo'ptimu, meni maktabga
sharmanda qilding-ku, bolam... Jannat opaning yuzlariga
qarasam, qovoqlari tushib, yig'lavoray deyaptilar. Shundoq
o'qituvchimni xursand qilaman deb xafa qilib qo'ydimmi-a?
Maktabga sharmanda bo'lishlarini o'ylamabman-da. Endi
«Yangi yo'l»da urib chiqishsa nima bo'ladi? Yana Jannat opa
meni «bolam» deyдилar-a. O'zimniyam ko'zimga yosh quyidi.

– Meni kechiring opa, boshqa qilmayman, – dedim hiqillab.
Opa meni yetaklab direktorning oldiga olib kirdilar. Direktor

oldiniga meni rosa maqtadi, keyiniga har oyda shunaqa
gazeta chiqarasan, deb bo'yninga qo'yib qo'ydi.
«Gazetang «Mushtum»ning ko'chirmasi bo'lmasin, yaxshi
bolalarning yaxshiligini, «yalqov» bolalarning yalqovligini,
bundoq, tushuntirib, tushuntirib yoz, o'qigan odam maza
qilsin, qani ishga», dedi. Jannat opa haligi narsani «Yangi
yo'l»ga yubormaslikni direktordan qattiq iltimos qildilar.

– Mayli opa, siz uchun, jo'natmaymiz, – va'da berdi
direktor, – lekin bu yog'iga harakat g'iling, bitiruvchi sinf
axir bu!

Bu gaplardan boshim g'ovlab ketdi. Direktorning gapi
bo'yicha men «tushuntirib, tushuntirib» yozishim uchun juda
ko'p gap bilishim kerak edi. Shuncha gapni qayerdan
olaman. Qayerdanam Jannat
opaga yaxshilik qilgim kelib
qoldi? Yaxshilik qilishni ham
qoyillata olmadim.

– Men ko'p gap bilmayman, – dedim yig'lamsirab.

– Ana, Ergash o'qituvchiga uchrash, ichi to'la gap, u
Toshkanda o'qiydi, – dedi direktor. Hayron bo'ldim. Ergash
aka doim maktabdalar-ku, qachon Toshkanga borib, o'qib
kelishga ulgurar ekanlar. Bilsam u kishi sirtidan o'qir ekanlar.

– Odam sergap, mahmadona bo'lishi uchun,
mashundog'-mashundog' kitoblarni o'g'ishi kerak, – deya
Ergash aka, – qarichlarini ko'rsatdilar. Bu semiz-semiz
kitoblar degani edi.

QAYDASIZ, SEMIZ KITOBLAR?

Maktabimizning ro'parasida ikki g'avatli bino bor edi.
Tagi do'kon, tepasi kutubxonona. Biz bolalar tanaffus paytida
do'konda aylanishaverar edig-u, kutubxonona bilan ishimiz
bo'lmasdi. O'qituvchilarimiz kirib-chiqib yurar, tatar
kutubxonachi «minda ditskiy kitoblar yuuq, bit» deb bizlarni
haydab solardi. Kutubxonona qo'rqa-pisa chiqib bordim.
Kutubxonachi meni ko'r-di-yu:

– Neshiliysin, marsh bundan! – deb baqirdi.

– Menga kitob kerak, Ergash aka aytdi, – dedim
qaysarlik bilan.

Ergash akaning nomini eshitgandan keyin u yumshadi.
Bildimki, Toshkanda o'qiydiganlardan yo qo'rqishadi, yo
hurmat qilishadi. Buni ustiga Ergash aka rais Qozog'boy
akaning o'g'li. «Kir» degandek ichkariga ishora qildi
kutubxonachi. Ichkariga kirdim-u, hayronlar qoldim. Og'zim
lang ochildi...

(Davomi bor)

Erkin MALIK

POVAXSIM KO'CHALARI



ALISHER NAVOIY

Dono va buyuk bobom,
Jahonga suyak bobom.
Nomi el ardog'ida,
Go'zal nazm bog'ida.
Yaratgan ajib bo'ston,
Va «Xamsa» – beshta doston.
Merosi nechuk ulkan,
Anglar, o'qigan, bilgan.
Har so'zi buyuk saboq,
Yuksakka yetgan so'qmoq.

ALPOMISH

Boychiborda xuddi qush,
Uchmasa-da, Alpomish.
Ammo har uyda bir alp,
Va shiddatkor olov qalb.
Botir ulg'ayar, o'sar,
Yomonlik yo'lin to'sar.
Yengar qanday bo'lsa g'ov
Pahlavon qalbi olov.
Go'yoki metin qoya,
Yurtin qilar himoya.

KOSMONAVTLAR

Merkuriydan yo Marsdan,
Kelayapsanmi, Ahmad?
Neptundan Nor shoshib keldi,
Olib keldi senga xat.
Yupiterdan xabar keldi,
U yerga uchar Zahro.
Oy bekasi, yer bekasi
Keyingi bekat Zuhro.
Hozircha bu orzudir,
Ammo oldda kelajak.
Yaqin kunda barcha inson
Rost, fazogir bo'lajak.
Kosmos bizning qo'limizga
Kalitini tutadi.
Evaziga bizdan mehr
Ezgulikni kutadi.



Men har kuni «Paxtakor» Markaziy stadioniga mashg'ulotga qatnayman. Federatsiya binosi oldidagi marmardan yasalgan to'pga ko'zim tushadi. To'p yonida doimo bir dasta gullar turadi...

30 YILDAN SO'NG...

Jamoamiz bilan murabbiyimiz hamrohligida «Paxtakor-79» Xotira turnirini tashkillashtirishdan avval ana shu yerni ziyorat qildik.


– «Paxtakor» jamoasi aviahalokatga uchragan yili men 9 yoshli bola edim, – deydi bolalar futbol jamoasi murabbiyi Shuhrat Rahmonqulov. 17 yoshli Sirojiddin Bozorovning o'yinlariga qiziqardim, uningdek zo'r futbolchi bo'lsam, deya orzu qilardim. Yillar yillarni quvalab o'tdi. Orzularim ro'yobga chiqdi. El orasida yaxshi futbolchi nomini oldim.

Murabbiy shogirdiga to'p tepishni o'rgatadi xolos, desangiz katta xato qilasiz. U avlodlarga ajdodlar merosini tanishtirishdek mas'uliyatli vazifani ham uddalashi kerak. Bugun o'sha mash'um voqea 30 yil to'lar ekan. Bizga Xotira turniri oldidan respublika Yosh tomoshabinlar teatrida kichik sahna ko'rinishi namoyish etildi. U yerda «Paxtakor-79» jamoasiga oid noyob rasmlar ko'rgazmasini ham tomosha qildik. Takrorlanmas iste'dodlar Mixail An, Ravshan Bozorov, Shuhrat Maqsudov kabi sobiq futbolchilarning maydondagi harakatlari, gol urgandagi quvonchi, muxlislar qurshovidagi foto

lavhalarni tomosha qilar ekanmiz, ularni xalq qanchalik e'zozlagani, ular bilan faxrlanganiga guvoh bo'ldik. Ayniqsa, futbol faxriysi Axbor aka Imomxo'jayev rasmlarni tomosha qilayotib, ko'z yoshi to'kkanlarida, biz ham qo'shilib yig'lidik.

Ertaga biz ular xotirasiga bag'ishlangan turnirda maydonga tushamiz. Maqsadimiz g'oliblik emas: ustozlar ruhini shod etib, munosib shogird bo'lish.

Sardor SODIQOV,
«Paxtakor» futbol akademiyasining
11 yoshli a'zosi



ZO'R SPORTCHI, DEVISHADI

Ahrorni taniydiganlar shunday deyishadi: «Chindan ham u zo'r sportchi-da». U «Giyohvandlik va narkomaniyaga qarshi» shiori ostida o'tkazilgan sport musobaqalarida taekvon-do bo'yicha ishtirok etib, birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Klublararo chempionatda esa faxrli o'rinni egalladi.

Ahrorjon Xursandov poytaxtimizdagi 278-maktabda o'qiydi. U yoshligidan sportga qiziqadi. Sport – bu sog'lomlik, polvonlik, deydi.

Zo'r sportchiga biz ham omad tilaymiz.

Zubayda MAMATQULOVA



QALB GULDASTASI



Yunus Rajabiy nomli pedagogika kollejida bo'lib o'tgan «Bolalar qalb guldastasi» nomli ijodiy uchrashuv ziyo ulashuvchi kitob mutolaasiga bag'ishlandi. Kitobni eng yaqin do'st, maroqli suhbatdosh deb bilgan talabalar, kecha mehmonlari taniqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri

To'lqin Hayit, «Sog'lom avlod gazetasi»

bo'lim muharriri Jamila Haydarovani iliq qarshi olishdi. Kollej rahbari Dilorom Rahimova shoir Tursunboy Adashboyevning bolalar adabiyoti ravnaqiga qo'shayotgan munosib hissasi haqida gapirib, «Siz eshitmagan qo'shiqlar», «Ona yer», «Orzularim – qo'sh qanotim» kabi to'plamlari adabiyotimiz xazinasiga qo'shilgan munosib tuhfa ekanligini ta'kidladi.

– Bolalikning sho'x-shodon onlari, goho arazli, gohida esa cheksiz xayollar og'ushidagi beg'ubor olamni aks ettirish shukuhi doimo o'ziga chorlab turadi. Kichkina do'stlarimni yaxshi ko'raman. Ularning yuzu ko'zidagi harakatlari bus-butunligicha darrov ko'zga tashlanadi, – deydi Tursunboy Adashboyev. Darhaqiqat shoir bobomiz aytganidek, bolalikning takrorlanmas onlari qalbimiz qatida bir umrga muhrlanib qoladi. Ko'proq parodiya janrida qalam tebratishga ishtiyoqmand shoirning so'z uslubi o'zgacha. Uning tarbiyaviy ahamiyatga molik satrlari o'quvchini aslo befarq qoldirmaydi. Kechada Tursunboy Adashboyev o'z she'rilaridan namunalar o'qib berdi. Shuningdek, To'lqin Hayit, Jamila Haydarova ham o'z ijod namunalaridan talabalarni bahramand etishdi. Qiziqarli savol-javoblar hamda kollej qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolarining she'riy chiqishlari kechaga o'zgacha shukuh bag'ishladi. Ushbu ijodiy uchrashuv yoshlarimiz qalbida nafaqat adabiyotga, go'zallikka bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini, balki adabiyotimiz xazinasiga qo'shilyotgan ko'plab nodir asarlardan faxrlanish hissini ham uyg'otadi.


Hilola ISLOMOVA,
kollej o'qituvchisi

BUYUGIMSAN, BUXORO

Javohirim qadim Buxoro,
Alishmasman ming bir tilloga.
Ibn Sino qadami tekkan,
To'prog'i zar, mashhur dunyoga.

Naqshbandiy ta'limi buyuk,
Dunyo ahlin lol etib kelar.
Samo uzra oppoq laylaklar,
Qaytib yana bag'ringga kelar.

Bellarida to'lg'onib sochi,
Zar do'ppisi yarashib boshga.
Xandon kulib tursa qizlaring,
O'xshab qolar go'zal quyoshga.



She'rларimda kuylayman seni,
Shahrim noming mashhur el aro.
Shabnam qo'ngan maysalar gilam,
Buyukdirsan qadim Buxoro.

Mehribonu QO'ZIYEVA,
Yunus Rajabiy nomli Pedagogika
kolleji 302-guruh talabasi

BOLALIK

Oq kemalar dengizlarda suzib borar,
Manziliga oxir bir kun yetar ekan.
Kunlar o'tib kun keladi yillar bilan,
Lek bolalik bizni tashlab ketar ekan.



Qiyqirishib ko'chalarni to'ldirardik,
Yarashardi arazlasak to'p talashib.
Shoxga chiqib dovuchchalar terar edik,
Qolardik-da kattalarga goh qarashib.

Maftuna SODIROVA,
kollej talabasi

Har lahzasi dilga muhr bo'lgan kunlar,
Goh shodlik gohi mahzun o'tar ekan.
Yillar osha o'sha damga talpinsakda,
Yillar bizdan yuz o'girib ketar ekan.


Quyida ta'riflari bayon etilgan sanalarni topib, shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida raqam atrofida yozish bilan Toshkent shahriga oid bilimingizni sinab ko'ring.

1. Poytaxtimizda Mustaqillik obidasi va Baxtiyor ona haykali – Mustaqillik va ezgulik monumenti ochilgan yil.
2. Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlash haqidagi YUNESKOning Bosh konferensiyasining 34-sessiyasi bo'lib o'tgan yil.
3. Toshkentning Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Tinchlik qo'ng'irog'i» majmuining ochilish marosimi bo'lib o'tgan sana.
4. Asosan o'quv darsliklari va metodik qo'llanmalar bosib chiqaruvchi «O'qituvchi» nashriyoti faoliyatini boshlagan sana.
5. Toshkentda O'zbekistonning davlat tili haqida qonun qabul qilingan yil.
6. Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxo'ja qolgan uch dahani ham o'z tasarrufiga olib chor hokimlikka barham bergan yil.
7. «Toshkent observatoriya» meteorologik stansiyasi tashkil etilgan sana.
8. Harbiy okrug shtabi huzurida dastlabki bosmaxona tashkil etilgan yil.
9. «Turkiston viloyatining gazetisi» nashr etila boshlagan sana.
10. O'zbek tilidagi eng birinchi

bosma kitob, Sh.Ibrohimovning «Taqvim» to'plami nashr etilgan yil.

11. Toshkent muzeyi – hozirgi O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi tashkil etilgan sana.
12. Ilk marotaba Turkiston o'quvchilari seminariyasi ochilgan yil.
13. Shaharda birinchi gimnaziya tashkil etilgan yil.
14. Toshkentda «G'uncha» jurnali nashr etila boshlangan yil.
15. Hozirgi Mannon Uyg'ur nomidagi san'at instituti tashkil etilgan sana.
16. «Paxtakor» sport inshooti qurila boshlangan yil.
17. Toshkent metropolitenining birinchi yo'nalishi ishga tushirilgan sana.
18. Toshkentda 1 oktabr «O'qituvchi va murabbiylar kuni» bayram deb belgilangan yil.
19. Toshkentda hozirgi «Ma'rifat» gazetasi ilki soni «Madaniy inqilob» nomi bilan nashrdan chiqqan sana.
20. Toshkentda O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi e'lon qilingan yil.
21. Toshkentda O'zbekiston Milliy olimpiada qo'mitasi tashkil etilgan sana.
22. «Turkiston» saroyi tantanali ochilgan sana.
23. Toshkentda O'zbekistonning Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF)ga a'zo bo'lib kirishi to'g'risidagi bitim imzolangan yil.
24. Toshkentda buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy

«TOSHKENT YILNOMASI» AYLANMA KROSSVORDI



MUAMMONOMA

- Kalit so'zlar:** 1. Toshkentning ilk nomlaridan biri – 9, 3, 9.
2. Muqaddas aziz diyor – 7, 1, 6, 1, 2.
3. Toshkentda yashab o'tgan, Bobur huzurida bo'lgan o'rta asr tarixchisi, huquqshunos, tarjimon Ali Qushchining jiyani – 4, 11, 12, 1, 4, 8, 14.
4. Poytaxtimiz hududidagi tumanlardan biri – 12, 1, 5, 13, 1
5. Xalqaro musobaqalar o'tkazilayotgan sport o'yini – 6, 10, 2, 2, 8, 15.

Endi shaklning ichki qismidagi muammonomani kalit so'zlar javoblari asosida hal eting. Bunda ulardan Toshkentga berilgan ta'rifni bilib olasiz.

Tuzuvchi Foziljon ORIPOV

Ganjaviy haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tgan yil.

25. Toshkent Davlat universitetiga O'zbekiston Milliy universiteti maqomi berilgan yil.
26. Toshkentning «Yunusobod» sport majmuida o'zbek kurashi bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tgan sana.

Pazanda qizlarjon, sizlarga yozning issiq kunlarida tez va oson tayyorlanadigan chanqovbosdi ichimliklar hamda pishiriqlar haqida tavsiyalar beryapmiz:

QATIQLI AYRON

Kerakli masalliq: yarim litr qatiq, yarim litr ma'danli suv, ta'bga ko'ra tuz.

Tayyorlash usuli: qatiq yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra unga ma'danli suv qo'shiladi va aralashtiriladi. Ta'bga ko'ra tuz qo'shiladi. Bu ichimlik juda foydali bo'lib, qon bosimi oshgan bemorlarga tavsiya qilinadi. Yoz kunlarida esa ayron chanqoqni bosadi.

«QIZIL GUL» ICHIMLIGI

Kerakli masalliq: 150 gr sut, 50 gramm malina sharbati, 2 choy qoshiq shakar.

Tayyorlash usuli: qaynatilgan sutga malina sharbatini hamda shakar qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi. Ichimlik sovuq holda ichiladi.

«XONAKI» KOTLET

Kerakli masalliq: 300 gramm mol go'shti qiymasi, 50 gramm kartoshka pyuresi, 2-3 ta piyoz, 1 ta tuxum, tuz, talqon, 100 gramm o'simlik yog'i.

Tayyorlash usuli: tozalangan piyoz, qiymani go'shtqiyimalagichdan o'tkazib, pyure, tuxum, tuz, ziravorlarni qo'shib aralashtiriladi. Tayyor qiymadan kotletlar yasab, tovada past olovda pishguncha qovurib olinadi.

KARTOSHKALI QUYMOQ

Kerakli masalliq: 300 gramm kartoshka pyuresi, 3 ta tuxum, 2 osh qoshiq un, 2-3 ta piyoz, 100 gramm o'simlik yog'i, 50 gramm talqon, 100 gramm pishloq, ziravor, tuz, ko'kat.

Tayyorlash usuli: qirg'ichdan o'tkazilgan pishloq va mayda to'g'ralgan piyoz kartoshka pyuresi bilan aralashtiriladi. Chaqilgan tuxumga ta'bga ko'ra tuz va ziravorlar qo'shib aralashtiriladi. Tayyor masalliqni bo'laklarga bo'lib, talqonga botirib olinadi, o'simlik yog'i solingan tovada quymoq bo'laklarini qizartirib qovuriladi. Uni sabzavotli ikra bilan dasturxonga tortilsa, yana ham xushxo'r bo'ladi.

Nargiza ABDULLAYEVA tayyorladi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV
Olovuddin ARIPOV,
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 26555
Buyurtma N: J 7888